
Huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbarlarining sayyor qabuli bo'lib o'tdi

Bugun Toshloq tumanidagi Musiqa va san'at maktabida Farg'ona viloyati huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbarlarining aholini yashash hamda turmush sharoitlarini o'rganish, mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida sayyor qabuli bo'lib o'tdi.

Qabulda fuqarolarning sud-huquq, tergov-surishtiruv, probatsiya, tadbirkorlik uchun bank krediti olish, ichimlik suvi, elektr ta'minotini yaxshilash va boshqa masalalarga oid murojaatlari tinglandi.

Barcha murojaatlar tegishli tartibda ro'yxatga olinib, yechimi topilgan murojaatlar joyida hal etildi va ayrim murojaatlar huquqiy maslahat va tushunchalar bilan qoniqtirildi.

Muddat talab etiluvchi murojaatlar esa hal etish uchun tegishli mutasaddilarga biriktirilib, nazoratga olindi.

2024-06-28 17:06:28